

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI TA'MINLOVCHI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

*Umarova Asila Sunnatilla qizi
Qo 'qon DPI magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faolligini ta'minlovchi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ijodiy faollik tushunchalari hususida ham mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ijodiy faollik, rivojlanish, ta'lim jarayoni, mahorat, munozara.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ТВОРЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Умарова Асила Суннатилла кизи
магистрант Кокан ГПИ

Абстрактный. В данной статье представлены некоторые мнения о механизмах развития профессиональных компетенций, обеспечивающих творческую деятельность будущих учителей. Также в статье содержатся комментарии к понятиям компетентности, профессиональной компетентности и творческой деятельности.

Ключевые слова. Компетенция, профессиональная компетентность, творческая деятельность, развитие, учебный процесс, умение, обсуждение.

PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT MECHANISMS ENSURING CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS

Umarova Asila Sunnatilla kizi
master student of Kokan DPI

Abstract. This article presents some opinions on the mechanisms of development of professional competencies that ensure the creative activity of future teachers. Also, the article contains comments on the concepts of competence, professional competence, and creative activity.

Keywords. Competence, professional competence, creative activity, development, educational process, skill, discussion.

Kirish. Zamonaviy sharoitlarda mehnat bozori talablariga mos ravishda o‘quvchilarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirish vazifasi qo‘yilyapti. Shu munosabat bilan pedagoglar kasbiy – pedagogik faoliyatining yangi mazmunini ishlab chiqarish ularning yangi ta’lim holatlari talab qilayotgan innovatsiyalarni o‘zlashtirish va qo‘llashga tayyorligini qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgan. Mutaxassislarni tayyorlashdagi maqsad va vazifalar o‘zgaryapti, malakalarni shakllantirish uchun bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u berilyapti, shaxsiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishga qayta moslashish sodir bo‘lmoqda.

Kasbiy ta’limni isloh qilish va ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabaning ijodiy, intellektual, ma’naviy rivojlanishining muhim shartidir. Aynan rivojlanish pedagogik jarayonning asosiy tushunchasidir. Shu munosabat bilan kasbiy ta’lim nafaqat bilim berish, ko‘nikma hosil qilishi kerak, balki o‘z – o‘zini aniqlash imkoniyatlarini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarni mustaqil harakatlarga tayyorlash, mas’uliyatni his qilishni o‘rgatishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shaxs ta’limi va tarbiyasining asosiy vazifalariga o‘rganuvchilarning shaxsiy potensiallarini rivojlantirish, tub madaniyatni tarbiyalash vazifalari kiradi. Ijodiy potensial shaxsiy potensialning tarkibiy qismidir. Uni rivojlantirishda o‘quv predmeti bo‘lgan qiziqish, intellektual rivojlanish darajasi, izlanish xarakteridagi vazifalarni bajarishga qiziqish, mustaqil fikrlash darajasi yuksaladi va o‘ziga ishonch, qiziquvchanlik va e’tiqod kabi xususiyatlar shakllanadi. O‘quvchilarning ijodiy potensiali turli xil vazifalarni hal qilish jarayonida rivojlanadi. Ijodiy vazifani biz o‘zining yechimi uchun yangi usullarni izlashni qandaydir yangi texnologiyalarni yaratishni talab qiladigan muammo sifatida inson tomonidan qabul qilinadigan kundalik hayotda yoki faoliyatning xohlagan shaklida paydo bo‘lgan holat sifatida aniqlaymiz [1].

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasida ijodiy potensial rivojlanishi uchun ularda o‘z kuchiga, ijodiy vazifalarni hal qila olish malakasiga ishonchni shakllantirish zarur. O‘ziga ishonmagan odam muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Albatta bu ishonch asosli bo‘lishi kerak. O‘quvchilarning maqsad vazifalar va ularni hal qilish vositalarini mustaqil tanlashga bo‘lgan harakati yo‘naltirilishi kerak. Mustaqil faoliyat ko‘rsatishga odatlanmagan, qaror qabul qilishda masuliyatni olishga o‘rganmagan kishi ijodiy faoliyat malakasini yo‘qotadi.

Bugungi kunda tashkilotchilik, ijodiy faollik, tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo‘lgan, innovatsion muhitni yarata oladigan mutaxassislar kamyob hisoblanadi. Shuning uchun, o‘quv jarayoni va darsdan tashqari faoliyatda ijodiy faollik va ijodiy

talablarni shakllantirish, shu bilan birga talabalarning ijodiy potensialini qo'llash imkoniyatlarini taqdim qilish zarur. Ijodiy faoliyat mazmuni – turli vazifalarga nisbatan ijodiy munosabat; atrofdagilar va o'z hayotini boyitish talablari; atrof–muhitni mukammallashtirishga bo'lgan harakat, imkoniyatlar va shaxsiy qobiliyatlarni ochish.

Ijodiy potensial – shaxsning ijodiy imkoniyatlari xilma–xilligi va miqyosidir. Ba'zan o'z ijodini xilma–xillashtirish va avvalgi ijodiy ishlarga umuman o'xshamagan nimadir yaratishni istab qolasan. Talabalarga o'z ijodini qanday rang–baranglashtirish, ijodiy potensialni oshirish: o'zining sevimli ishidan chalg'ish, ishiga bog'liq bo'lmanan nimanidir o'rganishni boshlash. Yangi ishtyoqni o'z didiga qarab tanlash mumkin, asosiysi u yoqsin. Shunda yangi "ishtyoq" eskisi bilan ajoyib shakllarda birlashadi. Yangi ko'nikmalar shakllanadi, maishiy tajriba boyiydi va ijodiy potensial ko'payadi. Shuning uchun aynan yangi qiziqish ijodiy potensialni o'stiradi va shaxs ruhini kamolga yetkazadi.

Ijodning deyarli barcha ko'rinishlari talabalarga o'zini namoyon qilish, ta'limda mustaqil innovatsion faoliyat ko'nikmalarini olish va mukammallashtirish imkoniyatlarini beradi. Ilmiy ijod talabani yangi, yanada chuqr bilimlar, ma'lumotni topish va undan oqilona foydalanish malakasi bilan boyitadi, yangi bilimlarni yaratish sohasida o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Badiiy ijod san'atning u yoki bu turi bilan muloqot qilish, o'ziga bo'lgan ishonchning cheksiz imkoniyatlarini beradi. Ijodiy faoliyatning barcha turlari talabalarning innovatsion yo'naltirilgan shaxsini shakllantirish uchun juda muhim bo'lgan mustaqil va erkin fikrlash, fikrini bildira olishga asoslangan. Shunday qilib, talabalarning ijodiy qiziqishlarini hisobga olib va ijodiy faolligini shakllantirib, oily va o'rta maxsus ta'limda mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshiradi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida raqobatbardoshlik va natijalilikni ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitlarda o'qituvchi va talaba munosabati xarakteri sifat jihatdan o'zgardi. Talaba nafaqat ta'lim ob'yekti, balki bu jarayonning subyekti, pedagog esa uning tashkilotchisi bo'ladi. Hodisalarni tushunish uchun nazariy bilimlarga o'rgatishdan ta'lim olish davomida to'plangan ko'nikmalarni egallash va hayotda qo'llashga o'tilyapti. Bo'lajak mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'limning faol usul va shakllariga asoslangan mustaqil ishlar ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalar qo'yilyapti.

Ta'limning faol zamonaviy usul va shakllariga ta'limning maxsus vositalari yordamida vazifalar tizimi orqali turli mustaqil faoliyat turlariga talabalarning maksimal jalg qilinishini maqsad qilgan yondashuv asos bo'ladi. Ta'limda o'quv fanlarini o'rganish jarayonida faol shakl va usullardan foydalangan holda ta'limni tashkil etishning quyidagi shakllaridan foydalilanildi:

Muammoning qo'yilishi. Mos kelgan metodik usullar yordamida (axborot va muammoli savollar, hosil bo'lgan farazlarni isbotlash yoki aksi) o'qituvchi talabalarni birgalikda fikrlashga, muhokamaga undaydi. Bu o'quvchilarini fikrlashini shakllantiradi, faollikka chaqiradi. O'qituvchi bilan hamkorlikda talabalar yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, o'z kasblarining nazariy va amaliy xususiyatlarini biladilar.

Ma'ruza-munozara. Ma'ruza materialini o'qituvchi va talabalarning o'zaro fikr almashishi shaklida bayon qilish bilan boshlanadi va bu o'zlashtirish faoliyatini faollashtirishga imkon beradi.

Ma'lumotli savollar. Muammoli va ma'lumotli savollar yordamida fanning qonuniyatları va prinsipları o'zlashtiriladi, talabaning individual xususiyatlari rivojlanadi, talabalarning mustaqil va o'quv-bilish faoliyati faollashadi. Talabalarda ega bo'lgan bilimlarni aktuallashtirish maqsadida tavsiya qilinadi.

Multimedia taqdimotlari. Vizual ma'lumotlar shaklida ta'limning texnik vositalari (sxemalar, rasmlar, fotosuratlar) yordamida taqdim qilinadi. Ular yordamida talabaning individual xususiyatlari, o'quv- bilish faoliyati, yuqori faollik darajasi shakllanadi. Ishning noan'anaviy shakllari "master-klasslar", "ijodiy ustaxonalar", "dumaloq stollar" talabalarga erkin shaklda o'zlarining takliflarini bildira olish, ijodiy loyihalarni himoya qilish imkoniyatini beradi

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun vazifalarni hal qilishning maxsus evristik usullariga o'rgatish foydali hisoblanadi. Aynan shaxs rivojlanishining aktuallashish resurslari, ochilishi, hayotiy motivlarni tasdiqlash, faoliyatni o'rnatishning kreativ shakllanishiga yo'naltirilgan evristik ta'lim ta'limning asosiy maqsadini bajaradi. Ta'lim oluvchilarining ijodiy rivojlanishining asosiy sharti o'qituvchi bilan hamkorlikdagi ilmiy faoliyatdir. Bu faqat hal qilinayotgan topshiriqning javobini talaba ham, o'qituvchi ham bilmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Bu sharoitlarda topshiriq o'quv muammosidan real ilmiy yoki ishlab chiqarish muammosiga aylanadi va bu ijodiy faoliyatni boyitadi va kuchaytiradi. Maishiy, raqobatlashish, o'zini namoyon qilish motivlari muhim ahamiyatga ega. Bu motivlarni aktuallashtirish va ichki motivatsiyani shakllantirish uchun o'qituvchining talaba bilan hamkorlikdagi faoliyatga shaxsiy yondashuvi muhim o'rinn tutadi [2].

Ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim texnologiyalari: muammolimodul texnologiya, loyiha metodi, informatsion texnologiyalardan foydalilanadi. Bu o'quv jarayonida o'qituvchi konsulant sifatida, talaba esa faol izlanuvchi sifatida qatnashadi. Ikkalasi ma'lumotlarni izlash, saqlash va qayta ishlash jarayonida yangi mahsulotlarni yaratib hammalliflarga aylanishadi. O'quv jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun talabalarning mustaqil ishlari (ilmiy, ijodiy, izlanish) bukletlar, taqdimotlar, namunaviy konspekt ishlanmalari, sxemalar, grafiklar, tablitsa ko'rinishidagi namunalari kiritiladi. Talabalarga ijod va o'zini namoyon qilish erkinligi beriladi,

shining uchun hamma izlanish faoliyatida mustaqil bo'lishga harakat qilishadi. Masalan: Internetdan texnologik ma'lumotlar va na'munalar tanlashda, materialni mavzu va bo'limlar bo'yicha tartiblash uchun terminologik lug'atlarni shakllantirishda.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilar bilan ishslash amaliyoti tufayli boy material va undan foydalanish imkoniyati o'zlashtirildi. Alovida o'quv predmetlari bo'yicha metodik komplekslar tuzildi, ulardan o'quv jarayoniga faol foydalanilayapti: ma'ruzalarning elektron variantlari, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy ishlanmalar, imtihonlarni o'tkazish uchun materiallar, nazorat va o'zo'zini nazorat uchun test topshiriqlari. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta kasbiy ta'limning ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ta'limning innovatsion usullaridan foydalanish bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirish imkonini beradi, ulanning raqobatbardoshligini, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. - Екатеринбург, 2014.- С.37.
2. Чупрасова.В.И. Современные технологии в образовании. - Владивосток, 2000.- С.45.
3. Современные технологии обучения в вузе. Под редакцией М.А.Малышевой. Учебно-методическое пособие.- Санкт-Петербург, 2011.- С.6.